



KIMYONI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT - KOMMUNIKASIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Mashrapova Vaziraxon Alimardon qizi

*Muqumiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti
aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (kimyo) yo'nalishi magisrtanti*

Annotatsiya: mamlakatimizda va xorijda uzuluksiz ta'limning yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Bunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'qitishni tashkil qilishda innovatsion yondashishni rivojlantiruvchi va barcha ta'lim jarayonlarini modernizatsiya qilish kuchi sifatida qaralmoqda.

Kalit so'zlar: xorij, ta'lim, axborot, kommunikatsiya, texnologiya, innovatsiya, ta'lim, jarayon, modernizatsiya.

Аннотация: дальнейшее совершенствование непрерывного образования осуществляется в нашей стране и за рубежом. В связи с этим использование информационно-коммуникационных технологий рассматривается как сила, развивающая инновационный подход к организации образования и модернизирующая все образовательные процессы.

Ключевые слова: зарубежье, образование, информация, коммуникация, технологии, инновации, образование, процесс, модернизация.

Abstract: further improvement of continuous education is being carried out in our country and abroad. In this regard, the use of information and communication technologies is considered as a force that develops an innovative approach to the organization of education and modernizes all educational processes.

Key words: abroad, education, information, communication, technology, innovation, education, process, modernization.

Zamonaviy ta'lim tizimining barpo etilishi, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy qilish bilan chambarchas bog'liq. Bu ayniqsa axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'qitishning yangi shakl va vositalariga taalluqlidir. Bular qatoriga elektron ta'lim beruvchi vositalarni faol qo'llashni taqozo etadigan elektron o'qitishni kiritish mumkin. Shu bois bugun bo'lajak o'qituvchilarga faqatgina tayyor elektron qo'llanmalardan foydalanishni o'rgatish bilan cheklanmay, balki ularning yangi ko'rinishlarini yaratish usullari, yo'llari va vositalarini o'rgatish ham muhim tadbirlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda va xorijda uzuluksiz ta'limning yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Bunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'qitishni tashkil qilishda innovatsion yondashishni rivojlantiruvchi va barcha ta'lim jarayonlarini modernizatsiya qilish kuchi sifatida qaralmoqda. Hozirgi kungacha elektron qo'llanmalardan foydalanish metodikalari bo'yicha o'zbek tilida bajarilgan



ishlar yetarli emas. Ba'zi ishlab chiqilgan elektron versiyalarda ham animatsiyalar kam, ko'p mavzular matn shaklida berilgan. Mavzudagi ob'ektlar ko'p hollarda rasmlar holida keltirilgan. Kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarda tasavvurni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq masalalar U.Yo'ldoshev, R.Boqiyev, F.Zakirova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.[1,7-bet]

Zamonaviy pedagogik texnologiya – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim. Zamonaviy pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Zamonaviy ta'lim turlari o'ziga xos o'qitish xususiyatiga ega bo'lib, har bir texnologiya alohida-alohida ko'rib chiqiladi. Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'qitish uslublaridan foydalanib, jahon talablari darajasida talaba va o'quvchilarni o'qitish mumkin.[2,10-bet]

Ta'lim jarayoni- o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi ma'lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidir. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab va ko'p komponentlidir. Ta'lim samaradorligi pedagog va talaba-o'quvchining faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy-metodik mukammalligiga. jamiyatda ilmi kishilarga bo'lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan ko'pgina omillarga bog'liq.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy kabi uch guruhga bo'linadigan metodlarning quyidagi variantlari qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;



- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- laboratoriya ishlari metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy-tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Barcha o'quv predmetlar qatoriga kimyo fani asosida puxta va samarali o'zlashtirishda zamonaviy ped texnologiyalardan foydalanishning o'rni katta. O'quvchilarning berilgan mavzular mazmunini tushunishi, unda aks etgan kimyoviy tushunchalar, qonunlar, ayrim moddalar misolida daliliy ma'lumotlarni o'zlashtirishda o'qitish metodlari yordamida amalga oshiriladi. Bularning barchasi talab darajasida bo'lishi uchun bugungi kunda kimyo ta'limida ham zamonaviy ped texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Xususan, anorganik kimyo darslarining o'qitilishida zamonaviy ped texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilar uchun darsning tushunarlik darajasini oshirmoqda. Buning natijasida o'quvchilarning bilim olish salohiyati o'smoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Golish L.V.«Ta'limning faol uslublari: mazmuni, tanlash va amalga oshirish» T. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, 2001 yil.
2. Madumarov T., Kamoldinov M.. Innovasion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash. «Toshkent-Talqin» 2012 yil.
3. Kamoldinov M., Vaxobjonov B., Innovasion pedagogik texnologiya asoslari. «Toshkent-Talqin» 2010 yil.
4. [http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/18139/mod_resource/content/0/KIMY ONI OQITISHFDA ZAMONAVIY TEXOLOGİYALAR Oquv qollanma.pdf](http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/18139/mod_resource/content/0/KIMY_ONI_OQITISHFDA_ZAMONAVIY_TEXOLOGİYALAR_Oquv_qollanma.pdf)
5. https://conferences.uz/plugins/themes/bootstrap3/pdf/conf_23_2020/21.Kimyo_yunalishi_3_qism.pdf